
TALABALARDA KOMUNIKATIV MULOQOT JARAYONINI RIVOJLANTIRISH

Hamrayeva Oynisa Farxod qizi

*Farg'onan davlat universiteti katta o'qituvchisi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda kommunikativ muloqot jarayonini rivojlantirishning dolzarbliji, unga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik yondashuvlar va samarali usullar yoritilgan. Shuningdek, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida samarali muloqotni ta'minlovchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ muloqot, talabalar, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy kompetensiya, muloqot ko'nikmalar

Zamonaviy jamiyatda shaxslararo muloqot madaniyatining yuqori darajada shakllangan bo'lishi muvaffaqiyatlari kasbiy faoliyat va ijtimoiy moslashuvning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarda kommunikativ muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, interaktiv ta'lim metodlarini joriy etish va o'qituvchining muloqotni boshqarish mahorati dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maqolaning asosiy maqsadi – talabalarda samarali muloqot jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llarini o'rganishdan iborat.

Talabalarda kommunikativ muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning bilim darajasini oshirish, balki ijtimoiy, psixologik va kasbiy jihatdan shakllanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'naliishlar dolzarb hisoblanadi:

Interaktiv o'qitish metodlari – talabaning o'z fikrini erkin bildirishiga, tanqidiy fikrlashiga, boshqa nuqtai nazarlarni tushunib, ularga nisbatan madaniy munosabat bildirishiga imkon yaratadi. Jumladan:



- "**Aqliy hujum**" (brainstorming) – muammoni hal qilishda erkin fikr almashishga zamin yaratadi.
- "**Munozara**" (debate) – talabalarmi o'z fikrini asoslashga, faktlar bilan isbotlashga o'rgatadi.
- "**Rol o'ynash**" (role play) – real hayotiy vaziyatlar asosida ijtimoiy muloqotga tayyorlaydi.
- "**Blits so'rov**" va "**Klaster**" metodlari – tezkor javob berish, axborotni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Samarali kommunikativ muloqotga erishishda bir qancha psixologik, ijtimoiy va tashkiliy omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday to'siqlar muloqotning sifatiga, ishtirokchilarining tushunish darajasiga va fikr almashish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning o'z fikrini erkin, aniq va ravon ifoda eta olmasligi ko'pincha quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

Talabalarda muloqot davomida yuzaga keladigan asosiy psixologik to'siqlarga o'ziga ishonchsizlik, uyatchanlik, sahnadagi qo'rquv, o'z fikrining to'g'rilinga shubha qilish kabi holatlar kiradi. Bu to'siqlar ayniqsa, omma oldida so'zlash yoki guruhda fikr bildirish vaziyatlarida kuchayadi. Psixologik mashg'ulotlar, ijobiy motivatsiya, ishonch muhitini yaratish, kichik guruhlarda ishslash orqali bosqichma-bosqich muloqotga jalb qilish bu holatni yengillashtiradi.

Talabaning so'z boyligining yetarli emasligi, grammatik yoki talaffuz xatolari, fikrni aniqlik bilan ifodalashdagi qiyinchiliklar muloqotning asosiy nutqiy to'siqlaridandir. Ayniqsa, o'z ona tilidan boshqa til (rus yoki ingliz tili)da muloqot qilishda bu muammolar kuchayadi. So'z boyligini oshirish bo'yicha mashqlar, muntazam kitob o'qish, nutqiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan interaktiv topshiriqlar, o'z ustida mustaqil ishslash bu muammoni kamaytiradi. Turli ijtimoiy kelib chiqish, madaniy qarashlar va qadriyatlar muloqotga noaniqlik yoki tushunmovchilik olib kelishi mumkin. Ba'zida talabalar boshqa madaniyatga oid kishilarning fikrini to'g'ri qabul qila olmasliklari yoki noto'g'ri talqin qilishlari mumkin. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, turli millat va madaniyat vakillari bilan o'zaro fikr almashish, ochiq va tolerant muloqot muhiti yaratish muhimdir. Muloqotga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Talabalarda erkin, samarali va madaniyatli muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirish uchun psixologik, pedagogik va texnologik yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Zamonaviy ta'lif jarayonida talabalarni nafaqat ilmiy bilim bilan qurollantirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini, ayniqsa kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kommunikativ muloqot talabaning fikr bildirish, bahs yuritish, jamoa bilan ishlash va o'zini jamiyatda erkin tutish kabi hayotiy muhim qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, psixologik treninglar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali talabalar o'rtaida muloqot madaniyatini yuksaltirish mumkin. Shu bilan birga, muloqotga to'sqinlik qiluvchi psixologik, nutqiy va ijtimoiy omillarni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ muloqot madaniyatini shakllantirish — talabaning har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlanishi, kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi hamda ijtimoiy faolligini ta'minlovchi muhim omildir. Shu bois, bu yo'nalishda pedagogik ishlar uzlucksiz va izchil olib borilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirova N. "Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar." – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Karimov S. "Pedagogik mahorat asoslari." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Axmedova M., Toirova D. "Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish." – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
4. Jalolova N.X. "Nutq madaniyati va kommunikatsiya." – Toshkent: TDPU, 2018.
5. Xasanov J. "Zamonaviy dars: mohiyati, shakllari va metodlari." // O'zbek pedagogik jurnali, 2021, №3.

6. Xodjayeva N. "Ta'limgarayonida interfaol usullarni qo'llash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish." // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №2.
7. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya." – Moskva: Pedagogika, 1983.
8. Хомякова И.Ю. "Формирование коммуникативных навыков у студентов в процессе обучения." // Современное образование, 2020, №5.
9. UNESCO. "Developing Students' Communication Skills: A Guide for Educators." – Paris, 2017.
- 10.

